

**BIR SO‘Z — MING MA‘NO: ZAMONAVIY HUQUQ TIZIMLARIDA ADOLAT
TUSHUNCHASINING TURLICHA TALQINI HAMDA MILLIY VA XALQARO
HUQUQNING EVOLYUTSIYASI**

Madmusayev Muhammadyusuf Shohjaxon o‘g‘li

Abu Rayhon Beruniy universiteti Yurisprudensiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18253740>

Annotatsiya. Ushbu maqolada adolat tushunchasining huquqiy, falsafiy va ijtimoiy mohiyati zamonaviy hamda tarixiy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Maqolada Sharq renessansi mutafakkirlari Forobiy, Amir Temur va Alisher Navoiyning adolat haqidagi qarashlari G‘arbning zamonaviy huquqiy maktablari (Jon Rouls nazariyasi) bilan qiyoslanadi. Shuningdek, turli huquqiy oilalarda (romano-german, anglo-sakson va islom huquqi) adolat talqinining farqli jihatlarini hamda O‘zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasidagi "Inson qadri uchun" tamoyilining amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda protsessual adolat va ekologik adolat kabi zamonaviy yo‘nalishlarga ham alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Adolat, huquq tizimi, inson qadri, Fozil odamlar shahri, Temur tuzuklari, Jon Rouls, ijtimoiy davlat, protsessual adolat, milliy huquq, huquq evolyutsiyasi.

Аннотация. В данной статье анализируется правовая, философская и социальная сущность понятия справедливости на основе современных и исторических подходов. В работе сопоставляются взгляды мыслителей Восточного Ренессанса (Фараби, Амира Темура и Алишера Навои) о справедливости с современными западными правовыми школами (теория Джона Роулза). Также освещаются различия в интерпретации справедливости в различных правовых семьях (романо-германской, англо-саксонской и исламской) и практическое значение принципа «Во имя достоинства человека» в обновленной Конституции Узбекистана. Особое внимание в исследовании уделяется таким современным направлениям, как процессуальная и экологическая справедливость.

Ключевые слова: Справедливость, правовая система, достоинство человека, добродетельный город, Уложения Темура, Джон Роулз, социальное государство, процессуальная справедливость, национальное право, эволюция права.

Abstract. This article analyzes the legal, philosophical, and social essence of the concept of justice based on modern and historical approaches. The study compares the views on justice of the Eastern Renaissance thinkers (Farabi, Amir Temur, and Alisher Navoi) with modern Western legal schools (John Rawls' theory). It also highlights differences in the interpretation of justice across various legal families (Romano-Germanic, Anglo-Saxon, and Islamic law) and the practical significance of the principle "For Human Dignity" in the renewed Constitution of Uzbekistan. The research pays special attention to modern dimensions such as procedural justice and environmental justice.

Keywords: Justice, legal system, human dignity, Virtuous City, Temur's Institutes, John Rawls, social state, procedural justice, national law, evolution of law.

Adolat — insoniyat sivilizatsiyasining nafaqat huquqiy, balki ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy poydevoridir. Jamiyat paydo bo'libdiki, "nima adolatli-yu, nima adolatsiz?" degan fundamental savol doimiy bahslar markazida bo'lib kelmoqda.

Adolat tushunchasi o'zining ko'p qirraliligi bilan insoniyat tarixidagi eng murakkab kategoriyalardan biri hisoblanadi. Mashhur huquqshunos Hugo Grotius ta'riflaganidek, adolat jamiyatni ushlab turuvchi "ijtimoiy magnit" vazifasini o'taydi.

Huquq — bu adolatning qog'ozga tushirilgan shakli, uning ijtimoiy instrumentidir. Biroq, insoniyat tarixining hech bir davrida adolat tushunchasi bugungidek ko'p qirrali, ziddiyatli va o'zgarishga moyil bo'lmagan. Bugun biz "global adolat" haqida gapiramiz, ammo amaliyotda har bir huquqiy tizim — xoh u G'arbning shaxsiy erkinlikka asoslangan nazariyasi bo'lsin, xoh Sharqning jamiyatga bog'liq odatlari yoki islom huquqining ilohiy qoidalar — adolatni o'z nuqtai nafari orqali tushuntiradi. O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida belgilanganidek, "Inson qadri uchun"[1] tamoyili aynan ijtimoiy adolatning oliy ko'rinishidir.

Sharq renessansi mutafakkirlari adolatni shunchaki quruq huquqiy norma sifatida emas balki "olam" va "inson qalbi" bilan ham bog'liq. Sharq falsafasida adolat tushunchasi markazida "Inson" va uning axloqiy qiyofasi turgan.

Abu Nasr Forobiy o'zining mashhur "Fozil odamlar shahri"[2] asarida adolatni jamiyatning birlashtiruvchi kuchi deb ta'riflaydi. Uning fikricha, adolat — bu har bir ijtimoiy qatlam va har bir shaxsning o'z o'rnini topishi hamda jamiyat umumiy farovonligi uchun xizmat qilishidir. Forobiy adolatni ikki katta sohaga ajratadi: birinchisi, jamiyatdagi ne'matlarni (boylik, hurmat, lavozim) kishilarning fazilatiga ko'ra taqsimlash, ikkinchisi esa shaxsning huquqlari va mulkini har qanday tajovuzdan saqlashdir. Bu qarashlar G'arbda oradan yetti yuz yil o'tib shakllangan "ijtimoiy shartnoma" nazariyalarining tamal toshi edi.

Amir Temur davlat boshqaruvida "Kuch — adolatdadir" shiorini markaziy o'ringa qo'ydi.

"Temur tuzuklari" [3] shunchaki harbiy qo'llanma emas, balki mukammal huquqiy tizim edi. Sohibqiron uchun adolat qonun ustuvorligiga teng bo'lgan. Uning nazarida, adolatli podshoh — bu o'z fuqarolarini himoya qiluvchi, mansabdorlarning zulmiga yo'l qo'ymaydigan va jamiyatning barcha qatlamlari o'rtasida muvozanatni saqlaydigan rahbardir. Akademik H. Boboyev o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, Temur davlatida adolat — bu ijtimoiy barqarorlikning kafolati sifatida ko'rilgan. Temur tomonidan o'rnatilgan "Kichik bo'lsa ham bir kishi zulm qilsa, jazosiz qolmas" tamoyili jinoiy adolatning o'sha davrdagi yuqori cho'qqisi edi.

Alisher Navoiy adolatni insoniy komillikning oliy darajasi deb bildi. Uning "Saddi Iskandariy"[4] dostonida adolatli shoh timsoli orqali ideal davlat boshqaruvi tasvirlanadi. Navoiy uchun adolat — bu eng avvalo zulmni ildizi bilan sug'urib tashlash va zaiflarning haq-huquqlarini kuchlilar tajovuzidan himoya qilishdir. Navoiyning adolat falsafasi bugungi kunda "insonparvarlik" deb ataladigan keng tushunchaning o'zagini tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda adolatning o'ziga xos milliy-huquqiy yo'nalishi shakllandi. Bu yo'nalish o'zidan oldingi tarixiy tajribani va zamonaviy xalqaro standartlarni sintez qila oldi. Akademik Akmal Saidov [5] adolat tushunchasini inson huquqlari bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qiladi. Uning qarashicha, adolat faqatgina qonunda yozilgan qoidalar emas, balki o'sha qoidalarining inson qadr-qimmatini qanchalik himoya qilishi bilan o'lchanadi. Saidov xalqaro huquqiy uslub doirasida adolatni "universal qadriyat" deb bilsa-da, har bir millatning o'z madaniy o'ziga xosligi adolat talqiniga ta'sir qilishini ilmiy asoslab beradi. Uning fikricha, huquq qoidalar va tartiblarni bildirsa, adolat esa shu qoidalar orqali erishiladigan haqiqiy ma'no va tenglikdir. Ya'ni huquq shaklini, adolat esa mazmunni ifodalaydi.

Professor Ziyodulla Islomov [6] huquq nazariyasi sohasida adolatni huquqning ichki mohiyati sifatida o'rgandi. Uning o'ziga xos nazariyasiga ko'ra, huquq va adolat bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Agar huquq o'zida adolat g'oyasini tashimasa, u "huquq" maqomini yo'qotib, shunchaki "davlat tomonidan o'rnatilgan majburlov" bo'lib qoladi. Islomov adolatni ijtimoiy tenglik va erkinlik o'rtasidagi oltin muvozanat sifatida baholaydi va bu muvozanatning buzilishi jamiyatda inqirozlarni keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. Professor H. Boboyev [7] esa adolatning tarixiy-huquqiy ildizlarini tadqiq qilar ekan, o'zbek davlatchiligi tarixidagi barcha yuksalishlar adolat tamoyiliga tayanganini isbotlaydi.

Uning fikricha, o'zbek xalqi uchun adolat — bu jamoaviylik, o'zaro yordam va mahalla tizimidagi ijtimoiy kelishuvlar bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy huquqiy tafakkurimizda "haq" va "adolat" tushunchalari ko'pincha sinonim sifatida qo'llanilishi bejiz emas.

Adolat tushunchasi turli huquqiy oilalarda tubdan farq qiluvchi shakllarda namoyon bo'ladi. Bu farqlar tarixiy taraqqiyot va diniy-falsafiy dunyoqarash natijasidir.

Romano-german huquqiy tizimida (Germaniya, Fransiya va MDH davlatlari) adolat "normativlik" qobig'iga o'ralgan. Bu yerda adolat — bu eng avvalo qonun chiqaruvchining irodasidir. Fuqaro sudga kelganida, u adolatni mavhum tushunchalardan emas, balki aniq kodifikatsiya qilingan moddalardan qidiradi. Sudyaning roli esa "qonun og'zi" bo'lish bilan cheklanadi. Ushbu tizimda adolat barqarorlik va prognoz qilinuvchanlikni anglatadi.

Anglo-sakson tizimida (AQSH, Buyuk Britaniya) esa adolat butunlay boshqacha — "moslashuvchanlik" va "haqqoniylik" tamoyillari asosida ishlaydi. Bu yerda sudya shunchaki norma ijrochisi emas, balki huquq yaratuvchisidir. Agar qonunning qat'iy talabi aniq bir vaziyatda adolatsiz natijaga olib kelsa, sudya "vijdon sudi" an'alariga tayanib, o'sha vaziyatga mos adolatli yechimni topishi mumkin. Bu yerda adolat — o'tmish tajribasi va bugungi mantiqning sintezidir. Bu tizimda sudya har bir ishning individual xususiyatlariga chuqurroq kirib boradi.

Islom huquq tizimida adolat "Adl" va "Qist" tushunchalari orqali ifodalanadi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari [8] ta'kidlaganlaridek, islomda adolat ilohiy mezon bo'lib, inson tomonidan o'rnatilgan qonunlar ushbu muqaddas mezonlarga zid kelsa, ular o'z-o'zidan adolatsiz deb hisoblanadi. Islom huquqi adolatni nafaqat huquqiy jarayon, balki ijtimoiy muvozanat sifatida ham ko'radi. Zakot, vaqf va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy instrumentlar orqali boylikni taqsimlash islomiy adolatning amaliy ko'rinishidir.

XX asrning eng kuchli huquqiy-falsafiy asari Jon Roulsning "Adolat nazariyasi" [9] hisoblanadi. Rouls adolatni "haqqoniylik sifatida ta'riflaydi va buni tushuntirish uchun "Nodonlik pardasi" eksperimentini taklif qiladi.

Ushbu nazariyaga ko'ra, jamiyatdagi adolat mezonlarini belgilashda biz o'z ijtimoiy mavqeyimizni unutishimiz kerak. Agar biz jamiyatda boy yoki kambag'al, sog'lom yoki nogiron bo'lib tug'ilishimizni bilmasak, biz eng zaif qatlamni himoya qiluvchi qoidalarni tanlagan bo'lardik. Bu bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Ijtimoiy davlat" konsepsiyasining asosidir. "Temir daftar", "Ayollar daftari" kabi tizimlar — bu nazariyaning amaliy va milliy ko'rinishidir. Roulsning adolat nazariyasi zamonaviy liberal demokratiyalarda tengsizlikni qanday qilib qonuniy va adolatli yo'l bilan kamaytirish mumkinligiga javob beradi.

Bugungi kunda adolat nafaqat "yakuniy natija", balki "jarayon" bilan o'lganmoqda.

Professor X.Azizov va M.Rustambayev kabi olimlarimiz o'z asarlarida protsessual adolatning psixologik va huquqiy kuchiga alohida to'xtalib o'tadilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar sud jarayoni ochiq, tomonlar teng bo'lsa va sudya ularni diqqat bilan eshitsa, hattoki yutqazgan taraf ham tizimni adolatli deb tan oladi. Bu jamiyatda sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchni shakllantiradi. Protessual adolatning asosiy elementlari — eshitislik, xolislik, shaffoflik va qarorlarning asoslantirilganligidir.

O'zbekiston sud islohotlarida aynan shu jihatlarga — sud majlislarining ochiqligi va raqamlashtirilishiga katta urg'u berilmoqda. "Adolat qaror topdi" deyish uchun jarayonning o'zi ham "toza" bo'lishi lozim.

Xalqaro maydonda adolat tushunchasi ko'pincha global siyosiy munosabatlarning qurboniga aylanmoqda. Akademik A.Saidov ta'kidlaganidek, dunyoda "ikkiyoqlama standartlar"ning mavjudligi adolatning yagona mazmunini parchalab yubordi. Bir xil huquqbuzarlik uchun bir davlatga sanksiyalar qo'llanilsa, boshqasiga nisbatan "ko'z yumilishi" adolat inqirozini keltirib chiqarmoqda. Davlatlararo adolat bugungi kunda xalqaro xavfsizlikning yagona kafolatidir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar "Inson qadri uchun" tamoyiliga tayanadi. Bu adolatning o'zbekona modeli bo'lib, u bir necha muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, ma'muriy adliya tizimining shakllanishi. Fuqaro va davlat organi o'rtasidagi nizoda fuqaroning "zaif taraf" sifatida tan olinishi — bu adolatning eng yuksak ko'rinishidir.

Ikkinchidan, Ijtimoiy himoyaning aniqligi. Har bir insonning yashash huquqi va munosib turmushi davlat tomonidan kafolatlanishi ijtimoiy adolatni ta'minlaydi.

Uchinchidan, sud mustaqilligi. Adolatni ta'minlovchi yagona organ — sudning har qanday siyosiy irodadan xoli bo'lishi sari intilish bu modelning asosi hisoblanadi.

Ekologik adolat tushunchasi ham O'zbekiston huquqshunosligida Professor J.Xolmo'minov tadqiqotlarida o'z o'rnini topmoqda. Orol dengizi fojiasi sharoitida kelajak avlodlarning toza tabiatga bo'lgan huquqini himoya qilish bugungi kunning adolat mezoni deb qaralmoqda. Tabiat oldidagi mas'uliyat — bu zamonaviy adolatning yangi qirrasidir.

Maqolamiz sarlavhasida aytilganidek, adolat haqiqatan ham "ming ma'noli" so'zdir. Bu uning zaifligi emas, balki hayotiyligidan dalolat beradi. Adolat — bu barqaror, bir marta va umrbod belgilangan formula emas. U har bir davrning ehtiyoji, har bir millatning ruhiyati va har bir insonning vijdoni bilan to'yinib turadigan tirik organizmdir.

Forobiyning "fazilati", Temurning "tuzugi" va Roulsning "haqqoniyligi" — bularning barchasi adolat deb ataluvchi buyuk ufqning turli qirralaridir. Bugungi O'zbekiston ushbu global nazariyalarni milliy qadriyatlar bilan sintez qilib, o'zining "Adolat modeli"ni yaratmoqda.

Bu modelda adolat — bu nafaqat qonunning harfi, balki Inson qadrining har qanday vaziyatda daxlsizligidir. Zulm bor joyda davlat yemirilsa, adolat bor joyda u gullab-yashnaydi.

Shuning uchun ham adolat — bu ming ma'no ostida yashiringan yagona, mutlaq va muqaddas haqiqatdir. Insoniyatning huquqiy taraqqiyoti aynan shu haqiqatni kashf etish yo'lidagi cheksiz harakatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Yangi tahrir, 2023).- <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri". - T.: "Yangi asr avlodi", 2016.- https://kitobxon.com/oz/kitob/fozil_odamlar_shahri-1
3. Amir Temur. "Temur tuzuklari". - T.: "O'zbekiston", 2011.- <https://kitobxon.com/oz/kitob/temur-tuzuklari-1>
4. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy". – T .: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2020- <https://turan-edu.uz/media/books/2024/05/23/1716376661.pdf>
5. Saidov A.X. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekiston". - T.: "Adolat", 2018.- <https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/77008>
6. Islomov Z.M. "Huquq nazariyasi: adolat va qonun ustuvorligi". - T.: "Adolat", 2007.- <https://library-tsul.uz/davlat-va-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9B-nazariyasi-islomov-z-m-2007/>
7. Boboyev H.B. "O'zbek davlatchiligi va huquqiy ta'limotlar tarixi". - T.: "Iqtisod-moliya", 2007.- <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/halim-boboyev-va-b-o-zbek-davlatchiligi-tarixi-2-kitob>
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Ijtimoiy odoblar". - T.: "Hilol-nashr", 2012.- https://www.amazon.com/Ijtimoiy-odoblar-Shayx-Muhammad-qatra_kitoblari/dp/9943942886
9. Rawls, J. "A Theory of Justice". - Harvard University Press, 1971.- <https://giuseppicapograssi.wordpress.com/wp-content/uploads/2014/08/rawls99.pdf>